

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV FAKULTETI
“MENEJMENT” KAFEDRASI

5230200 – Menejment bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishni
boshqarish (“Farg‘ona yog‘ moy” OAJ misolida)

Talaba:

Abdullayeva
Diyoraxon Zokirjon
qizi

Bitiruv malakaviy ishiga
raxbar-maslahatchi:

ass. I.Toshpo‘latov

Farg‘ona – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

MAZMUNI VA ULARNI ANIQLOVCHI KO'RSATKICHLAR TAVSIFI

- 11 Samaradorlik tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar.....
- 12 Iqtisodiy samaradorlik me'zonlari va ularning tavsiflari.....
- 13 Boshqaruv samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari va ularning mazmuni.....
-

II BOB. “FARG’ONA YOG’-MOY” AJNING IQTISODIY

SAMARADORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

- 21 “Farg’ona yog’-moy” AJning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.....
-
- 22 “Farg’ona yog’-moy” AJning iqtisodiy samaradorlik va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili.....
- 23 “Farg’ona yog’-moy” AJning boshqaruv samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari.....
-

III BOB. “FARG’ONA YOG’ – MOY” AJNING IQTISODIY

SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI BOSHQARISHNING ASOSIY

YO'NALISHLARI

- 31 “Farg’ona yog’-moy” AJning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari.....
-
- 32 “Farg’ona yog’-moy” AJda samaradorlikni oshirishni boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatimiz taraqqiyotining yaqin besh yillikdagi muhim yo‘nalish va ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hamda liberallashtirishga oid belgilangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini yanada yuksaltirish, aholi farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Chunonchi, ushbu hujjatda iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘rish sur‘atlarini saqlab qolish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga e‘tibor qaratilgan. Albatta, mazkur farmon asosida qabul qilinadigan dasturlar jamiyatimiz faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatimizda 2016-yil yakunlariga ko‘ra, ko‘plab sohalarda iqtisodiy o‘rish kuzatildi, yalpi ichki mahsulot 7.8 foizga o‘rdi. Yuqori iqtisodiy o‘rish sur‘atlariga tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi, davlat byudjetining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0.1 foiz profitsiti va 5.7 foizni tashkil qilgan inflyatsiya darajasining pastligini ifoda etgan makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash orqali erishildi.

Sanoat hajmi 6.6 foiz, pudrat qurilish ishlari 12.5 foiz, chakana savdo aylanmasi 14.4 foiz, xizmatlar 12.5 foiz o‘rdi.

Iqtisodiyotga 16.6 milliard AQSH dollaridan ko'p investitsiya qilindi, yoki 2015-yilga nisbatan 9.6 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan chet el investitsiya va kreditlar hajmi esa 11.3 foizga o'sib, 3.7 milliard dollardan ko'p bo'ldi¹.

O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishda ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Hozirda mamlakatimizda korxonalarning samaradorligi oshib borilishiga erishilmoqda. Lekin ba'zi bir korxonalarda samaradorlik masalasida muammolar yuzaga keladi. Bunga bir qancha sabablar mavjud, misol uchun, xom-ashyo bazasining yetishmasligi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi uzilishlar, texnik nosozliklar va boshqalar.

Shu sababdan, ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirish masalalarining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish va natijalarni amaliyotda qo'llash chora-tadbirlarini izlab topish, shuningdek, korxonalarni faoliyatini samarali boshqarish ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ishning maqsadi. Korxonaning iqtisodiy samaradorligini, boshqaruv faoliyatini oshirish, korxona xo'jalik faoliyatida iqtisodiy samaradorlik mezonlarini tahlil qilish, uning faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar, ularni boshqarish xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish asosida "Farg'ona yog'-moy" AJning samaradorligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish va boshqarishni takomillashtirish yo'llarini taklif etishdan iborat.

Ishning vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan:

– Samaradorlik va iqtisodiy samaradorlikning mazmun-mohiyati, shakllari va vazifalarini nazariy jihatlarini ochib berish;

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

- Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va uning muhim jihatlarini ochib berish;
- Korxona iqtisodiy samaradorligi holati va uni oshirish imkoniyatlari;
- Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirishda boshqaruvning o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- “Farg’ona yog’-moy” AJning iqtisodiy-moliyaviy samaradorligini tavsiflovchi ko’rsatkichlarini tahlil qilish;
- “Farg’ona yog’-moy” AJning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uni samarali boshqarishga doir xulosa va takliflarni bildirish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda mamlakatimizda korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishni boshqarishni takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Korxonalarda iqtisodiy samaradorligini oshirish erishish muammosi respublikamiz iqtisodchi – olimlarining diqqat markazidagi muhim muammolardan biriga aylangan.

Korxonalarda samaradorlikni oshirish va uni boshqarish masalalarga oid ba'zi nazariy qarashlarni respublikamiz iqtisodchi olimlari va boshqalar tadqiqotlarida uchratish mumkin. Jumladan, Sharifxo'jaev M., Abdukarimov B., Abdullayev Yo., Ulashev I., Atamurodov Sh., Yo'ldoshev N., Nabokov V va boshqalarning asarlarida yoritilgan.

Xorijiy va MDH adabiyotlari va ilmiy ishlarida iqtisodiy va boshqaruv samaradorligini oshirish muammolari, tahlil qilish ko'rsatkich va mezonlari, nazariyalari va turli tavsiflarini ko'plab uchratish mumkin. Xususan, bir qator chet el iqtisodchi – olimlari Stupakov V., Tokarenko G., Genkin B., Barinov V., Voljin I. kabi taniqli olimlar moliyaviy, iqtisodiy, ishlab chiqarish va boshqaruvga oid yo'nalishlar bo'yicha kitob va asarlari bilan korxonalar samaradorligini aniqlab berishga o'z xissalarini qo'shganlar.

Ishning obykti. Farg’ona viloyatidagi “Farg’ona yog’-moy” AJ korxonasi va uning mavzuga oid ma'lumotlari, hisob va hisobotlari hisoblanadi.

Ishning predmeti bo'lib, korxonalarda iqtisodiy samaradorlik va uni oshirishni boshqarishning yo'nalish va yo'llarin ijoriy etish hamda takomillashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asoslari sifatida xorijiy va O'zbekistonlik olimlarning mavzuga oid ilmiy ishlari va maqolalari, uslubiy adabiyotlar, jurnal va ro'znomalar, internet ma'lumotlari ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi. Tadqiqot predmeti tahlil qilinayotgan paytda shu mavzuga bevosita aloqador bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlardan, Prezident Farmonlari va asarlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlaridan, Moliya Vazirligi me'yoriy hujjatlari va boshqa e'lon qilingan materiallardan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublika statistika qo'mitasi va viloyat statistika boshqarmasi, "Farg'ona yog'-moy" AJning hisobotlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiliklari. "Farg'ona yog'-moy" AJda iqtisodiy samaradorlikni oshirishni va boshqarishni ko'zda tutadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Iqtisodiy samaradorlikning mazmun-mohiyati o'rganilib, unga erishishning chora-tadbirlari berildi.
- Samaradorlikni oshirishda boshqaruvning ahamiyati yoritib berildi.
- "Farg'ona yog'-moy" AJda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi va tegishli xulosalar chiqarildi.
- Korxonada iqtisodiy samaradorlikni oshirishni boshqarish bo'yicha taklif va tavsiyalar tizimi ishlab chiqildi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. BMIda keltirilgan ma'lumotlardan korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, unda keltirilgan tahlil va tavsiyalardan korxonalarning iqtisodiy samaradorligini yaxshilashda va boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda foydalanish tavsiya etiladi.

I BOB. KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI MAZMUNI VA ULARNI ANIQLOVCHI KO'RSATKICHLAR TAVSIFI

1.1. Samaradorlik tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar

Har qanday xo'jalik yuritish shaklining muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimda vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy shartlaridan biri uning samaradorligi darajasi bilan belgilanadi. Samarali xo'jalik yuritish raqobatli bozor muhitida xo'jalikning yashovchanligi va taraqqiyotini belgilab beruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar (yer, kapital, mehnat va boshqalar) cheklangan xarakterga ega bo'lib, bu holat ulardan imkoni boricha unumli, samarali foydalanishni talab etadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil – miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya'ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo'r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv sur'atda kengaygan takror ishlab chiqarish bo'ladi; agar yana ham ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo'llaniladigan bo'lsa, intensiv sur'atda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O'zbekiston korxonalarida ana shu ikki yo'ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda.

Samara – bu natija, oqibat, meva. Masalan, ijodiy mehnat samarasi.

Samaradorlik – bu kutilganicha yoki undan ham ortiq samara. Samarali, sermahsul. Masalan, samarali mehnat.

Iqtisodiyotda “samara” – bu yaratilgan:

1. yalpi ichki mahsulot;

2. yalpi milliy daromad;
3. yalpi sof mahsulot;
4. yalpi sof daromad kabilarda o'z aksini topadi.

Ammo birgina samaraning o'zi kishi faoliyatini to'liq ifodalay olmaydi. Eng muhimi, shu samaraga qanday xarajatlar orqali erishilganini aniqlashdir. Zero, bir xil xarajat qilib turli samara olinishi mumkin bo'lganidek, bir xil samaraga turli xil mehnat sarfi tufayli erishish ham mumkin.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning maqsadi ham oz mehnat, moddiy va pul mablag'larini sarflab ko'proq samaraga erishishdir. Bu degan so'z, erishilgan samarani, natijani (S), sarflangan xarajatga (X) bo'lish kerak. Bunday taqqoslash samaradorlik (SD) nisbiy ko'rsatkichini beradi.

$$SD = \frac{S}{X} \quad (1)$$

Kasrning maxraji – bu absolyut miqdorlar bo'lib, ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida sarflangan:

1. yalpi mehnat;
2. yalpi xom ashyo;
3. yalpi fondlar;
4. yalpi investitsiyalardir.

Samaradorlik – eng ko'p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, da'volash va da'volanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar.

Samaradorlik, bu – xarajatlar va natijaviy ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlik, ya'ni korxonaning foydaliligidir. Korxonalar foyda olish bilan bir qatorda jamiyat ehtiyojlarini qondirishga hame'tibor qaratadi. Bozor islohotlari chuqurlashgan sari korxonalarda foydaning shakllanish yo'llari va iqtisodiy mazmuni ham o'zgarib boradi.

Samaradorlik iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyasining muhim

tushunchalaridan biri hisoblanib, amaliy faoliyatda ko'pincha "muvaffaqiyat", "natijaviylik", "raqobatbardoshlik" tushunchalarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Masalan, u:

- qilingan xarajatlar va olingan natijalar orasidagi nisbatdir;
- iqtisodiy tizmi holatini va boshqaruv sifatini tavsiflaydi (ular samarali yoki samarasiz bo'lishi mumkin);
- iqtisodiy tizim holatini optimalga yaqinlashtirish tadbiri yoki maqsadga erishish ehtimolligi sifatida qaralishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan jihatlardan birinchisi ko'proq amaliy ahamiyatga ega. U iqtisodiy resurslardan foydalanish mahsuldorligi va rentabelligini ifodalaydi.

Samaradorlik iqtisodiy tizim holatini tavsifi sifatida (ikkinchi jihat bo'yicha) ko'pincha italiyalik olim tomonidan ishlab chiqilgan (optimallik) ko'rinishida e'tirof etiladi, ya'ni samaradorlik iqtisodiy tizimning shunday holati yoki resurslarning shunday taqsimlanishiki, bir tomondan, yuqori natijalarga erishish, boshqa tomondan, nimanidir yo'qotish kerak bo'ladi.

"Samaradorlik" tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan uchinchi (optimalga yaqinlashish tadbirlari) optimallashtirish vazifasining qo'yilishiga asoslanadi. Unga muvofiq samaradorlikni ikki asosiy ko'rinishda ifodalash mumkin.

- ma'lum resurslar sarfi natijasida olingan foyda miqdori bilan;
- ma'lum ishlab chiqarish natijalariga erishish uchun kerak bo'ladigan resurs xarajatlari bilan.

Korxonalar iqtisodiyotiga, bag'ishlangan aksariyat adabiyotlarda ishlab chiqarishning faqatgina iqtisodiy samaradorligi haqida so'z ketadi. Xolbuki, mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar kishilarning e'tiborini jalb qilmoqda va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va ularga baho berish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarishning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samaradorligini o'rganish o'ta muhimdir. Ular o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadigan kategoriyalardir.

Samaradorlik korxona ishlab chiqarish faoliyatining "ko'zgusi" hisoblanadi. Bu «ko'zgu»da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko'rish mumkin. Ma'lumki,

har bir tarmoq, korxona, qolaversa, har bir shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Buning uchun ma'lum xarajatlar qiladi. Ana shu foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korxona faoliyatining «ko'zgusi» bo'lgan samaradorlikda ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.

Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Shunga ko'ra unga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aniq olingan xo'jaliklarda, tarmoqlarda va hududlarda samaradorlikni oshirishning shu joyining sharoitlari xususiyatidan kelib chiqadigan qanchadan-qancha omillari, borki, ularni topib ishga solish va foydalanish samaradorlikni keskin oshirishning keng imkoniyatlari bo'lib hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatib, ular chizmada ko'rsatilganidek uch guruhga ajratiladi:


1. Tashkiliy-iqtisodiy omillar;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
3. Bozor muhiti omillari.

Bular ichida bozor muhiti omillari korxonalar uchun yangi omillar bo'lib, ular bozor munosabatlari asosida paydo bo'lgan. Bozor muhiti omillari respublikamizda iqtisodiy islohotlarni, chuqurlashtirishning hozirgi bosqichi va kelajak taraqqiyot jarayonida asosiy omillar qatoridan joy olgan. Shu jihatdan ham ushbu omillar guruhi mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin.

Bozor muhiti omillari – bu korxonalar xohish va istaklaridan tashqarida obyektiv ravishda mavjud bo'lgan faol kuchlar bo'lib, mahsulotlarga nisbatan shakllanadigan bozordagi talab va takliflar o'z ta'sirini o'tkazadi, shuningdek, korxonaning moliyaviy natijalari shakllanishi jarayoniga o'zining ijobiy va salbiy

ta'sirini o'tkazadi. Ushbu omillar guruhi tarkibiga kiruvchi raqobat omili ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi 1-rasmda korxona ishlab chiqarish samardorligiga ta'sir qiluvchi omillar keltirilgan.



1-rasm. Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning alohida o'rni mavjud.

Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqozo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab, ko'p natijaga erishish zarur. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdagi resurslar tizimi harakatda bo'ladi: a) moddiy resurslar; b) mehnat resurslari; v) moliyaviy resurslar; g) energetik resurslar; d) axborot resurslari, ya'ni informatsion resurslar.

Mana shu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Samaradorlik – bu, foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va majmua tavsifiga ega.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalar bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi. Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda, bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Samaradorlik – bu korxona tijorat hisobi faoliyatining ko'rsatkichlaridan biridir. Foydalilik ishlab chiqarish faoliyatining ma'lum muddati (yil, chorak)

davomida serdaromadlik (zarar keltirmaslik) xususiyatini anglatadi. U xo'jalik faoliyatining pirovard natijalarini tog'ri baholashga va korxonadagi mavjud resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy manfaatdorligini yo'lga qo'yishga imkon beradi.

Amaliyotda tadbirkor va investorni qiziqtiradigan samaradorlikning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

- xo'jalik faoliyatini yuritishga solingan aktivlar samaradorligi;
- mahsulotni sotish samaradorligi;
- o'z kapitali (mablag'i) samaradorligi;
- xarajatlar samaradorligi;
- bir dona aksiya samaradorligi.

Korxona faoliyatini yuritishga solingan aktivlar samaradorligi (A_{rent}) – bu sof foydaning qo'yilgan barcha mablag'lar, ya'ni aktivlarning 1 so'mga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) umumiy aktiv (A) ning o'rtacha yillik summasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$A_{rent} = \frac{SF}{A} \quad (2)$$

Mahsulotni sotish samaradorligi (S_{rent}) – bu sotilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda ulushini, ya'ni sotilgan mahsulotning samaradorlik darajasini tavsiflaydi. U yalpi foyda samarasining (YaF) mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumiga yoki daromadga (SPT/D) nisbati ko'rinishida hisoblanadi:

$$S_{rent} = \frac{YaF}{D} \quad (3)$$

Korxona o'z kapitali samaradorligi ($O'K_{rent}$) – bu sof foydaning korxona o'z kapitali (mablag'i) 1 so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) korxona o'z kapitalining o'rtacha yillik summasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$O'K_{rent} = \frac{SF}{O'K} \quad (4)$$

Aksionerlik jamiyatining 1 dona aksiyasi samaradorligi (AK_{rent}) – sof foydaning korxona aksiyalari (A_k) soniga nisbati ko'rinishida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi.

$$AK_{\text{rent}} = \frac{SF}{A_k} \quad (5)$$

Samaradorlikning barcha ko'rsatkichlari korxonaning barqarorligini aniqlashga, uni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va bozordagi raqobatbardoshligini ko'tarish bo'yicha tadbirlarni belgilashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradordigini farqlaydilar. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma'lum ma'noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin. Iqtisod ijtimoiy hayotdan tashqarida bo'lmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodsiz bo'lmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki amalga oshirilgan har bir ishni ayni vaqtda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish – boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara – material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor. U vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtining zoye ketishini kamaytirish, mablag'lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o'stirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy samaradorlik shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlari yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, korxona tovarlarining aholi jon boshiga iste'mol qilinishi, ijtimoiy iste'mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash bo'yicha xarajatlarning o'sishi bilan tavsiflanadi.

Xorijiy firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxona rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani yechish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

– bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;

– iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;

– aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralari yaratish.

Xo'jalik samaradorligini oshirish omillarining yuqorida sanab o'tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko'rinishlari yordamida, ishlab chiqarish samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval

Mahsulot ishlab chiqarishda, sotishda xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasi

Moddiy va buyumlashgan shaklda		Pul shaklida	
Resurslar	Xarajatlar	Resurslar	Xarajatlar
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To'langan oylik miqdori, jumladan, mukofat va qo'shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalar (mehnat qurollari)	Mehnat qurollarining eskirishi	Asosiy kapital	Amortizatsiya ajratmalar
Mehnat predmetlari	Iste'mol, talab, materiallar, yoqilg'i, energiya va h.k.	Aylanma kapital	Sarflangan xom-ashyo, material va h.k.lar qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo'qotishlari	Muomala fondlari	Qo'shimcha xarajatlar (qiymat)
—	—	Pul mablag'lari	Kredit uchun foiz

Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo'lib, buning hamma uchun to'g'ri keluvchi yagona yo'li mavjud emas. Har bir korxona bu masalani yechishda o'z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq barcha hollarda ham samaradorlikning asosida foydani maksimallashtirish yoki xarajatlarni minimallashtirish yotadi.

Bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

1.2. Iqtisodiy samaradorlik me'zonlari va ularning tavsiflari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida korxonalarga keng xo'jalik yuritish mustaqilligi berilishi bilan, ular nafaqat ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etadigan bo'ldilar, balki, o'z mahsulotlariga xaridorlarni hamda ta'minotchilarni mustaqil tanlash, moliya bozorlarida ishtirok etish hamda soliq va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng foyda miqdorini erkin taqsimlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday sharoitda korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini faqatgina ishlab chiqarish natijalari bilan baholab bo'lmaydi, chunki bozor sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotni manfaatli asosda sota olish hamda moliyaviy faoliyat natijalari ham korxona samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agar korxona xo'jaligining to'lov qobiliyati va ishonchliligi yuqori bo'lsa, uning uchun turli sohalarda sheriklarni izlab topishi va kreditlar jalb etishi oson kechadi.

Bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Ammo

ushbu sharoitda ham ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish yo'nalishlarini, ta'sir etuvchi omillarini va samaradorlikni aniqlash uslublarini belgilash muhim bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Iqtisodiy samara va samaradorlik korxonaning muvafaqqiyatli faoliyati ko'rsatkichlari sifatida bir-biri bilan bevosita bog'liqdir.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi – ishlab chiqarish faoliyatining natijaliligi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining erishgan pog'onasini va ulardan foydalanish darajasini ifoda qiluvchi xo'jalik faoliyat natijalari va jonli hamda moddiylashtirilgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbatdir.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishni rivojlantirishning obyektiv qonunidir. Samaradorlikni oshirish ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, resurslarni tejash, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zahiralarini ko'paytirishni talab etadi.

Iqtisodiy samaradorlik darajasi – iqtisodiy samara va ishlab chiqarish xarajatlari hamda resurslari kabi ikki miqdorni bir-biri bilan taqqoslashdir.

Iqtisodiy samara qiymat bahoda namoyon bo'lgan qandaydir foydali natijani nazarda tutadi. Odatda foydali natija sifatida foyda yoki xarajatlar va resurslarni tejash hisoblanadi. Korxonada olingan iqtisodiy samara – mahsulotni ishlab chiqarish va xarajatlarni tejash miqyosiga bog'liq mutlaq miqdordir.

Iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy samaraga hamda bu samarani keltirib chiqargan xarajatlar va resurslarga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, iqtisodiy samaradorlik – samarani xarajatlar va resurslar bilan taqqoslash natijasida olinadigan nisbiy miqdordir. Odatda korxona iqtisodiy faoliyatining

muvaffaqiyatini ta'riflovchi ikki ko'rsatkich tahlil qilinadi, chunki alohida samara va samaradorlik ko'rsatkichlari korxonani to'liq va har tomonlama baholay olmaydi. Masalan, shunday vaziyat bo'lishi mumkinki, bunda korxonada mavjud iqtisodiy samaradorlikning nisbatan past darajasida o'zini olingan foydada aks ettiradigan sezilarli iqtisodiy samaraga erishish mumkin. Va aksincha, iqtisodiy samaraning uncha katta bo'lmagan miqdorida ishlab chiqarish samaradorligining yuqori darajasi bilan ta'riflanishi mumkin.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlarini to'g'ri aniqlash uchun samaradorlik mezoni va ko'rsatkichlarini aniqlash kerak.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligining umumlashtiruvchi mezoni bo'lib ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasi hisoblanadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = \frac{Q}{Ch} \quad (6)$$

Bu yerda:

MU – mehnat unumdorligi;

Q – mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

Ch – moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlovchilarning o'rtacha soni.

Ma'lumki, milliy daromad moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yangidan yaratilgan qiymatni xarakterlaydi va yalpi ijtimoiy mahsulot bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan xom ashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa ishlab chiqarish vositalari qiymatining ayirmasi sifatida aniqlanadi. Milliy daromad barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining sof mahsulotlari yig'indisi sifatida maydonga chiqadi.

Moddiy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlarida sof mahsulot yalpi mahsulot va moddiy ishlab chiqarish xarajatlari orasidagi ayirma orqali hisoblanadi.

Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlari bo'lib mehnat sig'imi, kapital sig'imi va fond sig'imi hisoblanadi.

Mahsulotning mehnat sig'imi jonli mehnat unumdorligiga teskari ko'rsatkich bo'lib, sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$MS = \frac{Ch}{Q} \quad (7)$$

Bunda:

MS – mahsulot mehnat sig'imi;

Ch – moddiy ishlab chiqarish sohasida sarflangan mehnat miqdori;

Q – ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmi (yalpi mahsulot).

Mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi, mahsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

Uning formulasi quyidagicha:

$$Mat_s = \frac{M}{Q} \quad (8)$$

Bu yerda:

Mat_s – mahsulotlarning material sig'imi;

M – mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori pul ko'rinishida;

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qiymat ko'rinishida.

Mahsulotning material sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq mahsulot material sig'imini kamaytirish, uning sifatini pasaytirish yoki texnologiya norma va qoidalarini buzish hisobiga amalga oshirilmasligi lozim. Material sig'imining bu tarzda kamaytirilishi iqtisodiy jinoyat hisoblanadi va qonunga asosan jazoga tortiladi.

Mahsulot moddiy sig'imining kamayishi mamlakat xalq xo'jaligi uchun samaralidir, chunki moddiy resurslarining barchasi chegaralangan, mahsulot tannarxida esa moddiy xarajatlar ulushi ancha salmoqlidir sanoatda barcha xarajatlarining deyarli $\frac{3}{5}$ qismi moddiy xarajatlardir.

Mahsulotning kapital sig'imi:

$$K_s = \frac{K}{\Delta Q} \quad (9)$$

Bunda, K – kapital qo'yilmalarining umumiy hajmi; ΔQ – ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining o'sishi.

Mehnat qurollari (asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig'imi va fond qaytimi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxona asosiy fondlarining bir birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi, fond sig'imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo'lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi (F_q) va fond sig'imini (F_s) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$F_q = \frac{Q}{F} \quad (10)$$

Bu yerda:

Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati (korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati).

$$F_s = \frac{F}{Q} \quad (11)$$

Fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish va mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Mashina va uskunalardan unumli foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini ko'paytirishning muhim zahirasi hisoblanadi.

Mahsulotning kapital sig'imi va fond sig'imi ko'rsatkichlarini yaratilgan milliy daromadga nisbatan ham aniqlash mumkin.

Iqtisodiy samadorlikning yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlari cheklangan xarakterga ega, chunki ular (ijtimoiy mehnat unumdorligidan tashqari) ishlab chiqarish va xarajatlar iqtisodiy samaradorligi to'g'risida to'liq tasavvur bermaydi, balki alohida turdagi resurslardan foydalanishni ifodalaydi.

Amaliyotda umumiy (absolyut) va taqqoslama iqtisodiy samaradorlikni farqlashadi.

Absolyut iqtisodiy samaradorlik – xarajatlar va resurslar hajmini alohida va birga taqqoslagan holda iqtisodiy samaraning umumiy miqdorini ta’riflovchi vaqtning ma’lum qismi uchun ko’rsatkichdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, xarajatlar va resurslar o’zining iqtisodiy tabiati bo’yicha farqlanadi:

- joriy xarajatlar, qoidaga ko’ra, vaqtning qandaydir qismi uchun, odatda bir yilga, so’m/yilda o’lchanadi;
- bir yo’la xarajatlar (bir martalik), so’mda o’lchanadi.

Korxonada ishlab chiqarishning absolyut samaradorligini baholash bo’yicha qator ko’rsatkichlarni belgilaydilar:

a) differentsiatsiyalangan ko’rsatkichlar:

- ishlab chiqarishning mehnat sig’imi (MS) va mehnat unumdorligi (MU);
- material sig’imi (Mat_s) va ishlab chiqarishning material qaytimi (Mat_q):

$$Mat_s = \frac{M}{Q}; \quad Mat_q = \frac{Q}{M} \quad (12)$$

Bu erda: M – moddiy xarajatlar;

Q – reja davri uchun ishlab chiqarish hajmi;

- fond qaytimi (F_q) va ishlab chiqarishning fond sig’imi (F_s):

b) integral (aniqlashtirilgan) ko’rsatkichlar:

- 1000 so’mlik tovar mahsulotiga xarajatlar (X):

$$X = \frac{Tan_r}{TM} \quad (13)$$

Bu yerda, Tan_r – reja davri uchun korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi; TM – reja davridagi tovar mahsuloti hajmi, so’m;

Bozor sharoitlarida korxona xo’jalik faoliyati samaradorligining umumlashtiruvchi yoki mezon ko’rsatkichi sifatida rentabellik yoki kapitalning daromadlilikini qabul qilish mumkin.

- ishlab chiqarish rentabelligi (R_{ich}) va mahsulot rentabelligi (R_m), % da

$$R_{ich} = \frac{Foy_y}{F/AV} \times 100 \quad (14)$$

$$R_m = \frac{Foy_r}{Tan_r} \times 100 \quad (15)$$

Bu yerda,

Foy_y – korxona bo'yicha yalpi foyda;

F – korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati;

AV – korxonaning me'yorlanadigan aylanma vositalari;

Foy_r – tovar mahsuloti realizatsiyasidan foyda.

Nisbatning kattalashishi mehnat, moliya, texnologiya va moddiy resurslaridan unumliroq foydalanishni anglatadi. Chunki aynan ular ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari, mahsulot bahosiga ta'sir o'tkazadi. Xo'jalik faoliyati minimal xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan joylarda samaraliroq bo'ladi.

Korxonaning samarali faoliyatini baholash bo'yicha ko'rsatkichlar tizimida kapital qo'yilmalar samaradorligi ko'rsatkichlari alohida o'ringa ega:

– mahsulot kapital sig'imi (K_s) va kapital qaytimi (K_q):

$$K_s = \frac{K}{\Delta Q}; K_q = \frac{\Delta Q}{K} \quad (16)$$

Bu yerda, K – kapital qo'yilmalar hajmi;

ΔCh – korxonada kapital qo'yilmalar orqali mahsulot chiqarishning nisbatan o'sishi.

– kapital qo'yilmalariing iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti (I_k) xalq xo'jaligi bo'yicha:

$$I_q = \frac{\Delta D}{K} \quad (17)$$

Bu yerda, ΔD – ishlab chiqarilgan milliy daromad (sof mahsulot) hajmining bir yildagi nisbatan o'sishi.

Faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar uchun kapital qo'yilmalar rentabelligi ko'rsatkichi hisoblanadi:

$$R_k = \frac{\Delta Foy}{K} \quad (18)$$

Bu yerda, Δfoy – kapital qo'yilmalar bilan bog'liq foydaning o'sishi.

Qaytadan tashkil etilayotgan korxonalar bo'yicha:

$$I_q = \frac{K_{ch} - Tan}{K_{sm}} \quad (19)$$

Bu yerda, K_{ch} – loyiha bo'yicha tovar mahsulotini bir yildagi ishlab chiqarish qiymati;

Tan – mahsulotni bir yilda chiqarishning tannarxi;

K_{sm} – tashkil etiladigan korxonaning smeta bo'yicha qiymati.

– faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarda kapital qo'yilmalarni qoplanish muddati (T_{QOP}):

$$T_{QOP} = \frac{K}{\Delta FOY} \quad (20)$$

Tashkil etilayotgan korxonalarda:

$$T_{QOP} = \frac{K}{K_{ch} - Tan} \quad (21)$$

Taqqoslama iqtisodiy samaradorlik – mahsulot tannarxini pasaytirish yoki rentabellikni oshirishdan olingan tejashni turli variantlar o'rtasida kapital qo'yilmalar va boshqa avanslashtirilgan xarajatlar ayirmasiga nisbati sifatida aniqlanishi mumkin bo'lgan taqqoslash va eng yaxshi variantni tanlash natijasida olingan shartli iqtisodiy samarani ta'riflaydigan ko'rsatkichdir.

Taqqoslama iqtisodiy samaradorlikni baholash quyidagicha olib borilishi mumkin:

– qoplash muddati hisobi asosida (T_{qop}):

$$T_{qop} = \frac{K_2 - K_1}{Tan_1 - Tan_2} < T_m \quad (22)$$

Bu yerda, K_1 va K_2 , Tan_1 va Tan_2 – mos ravishda taqqoslama variantlar bo'yicha kapital qo'yilmalar va mahsulot ishlab chiqish bo'yicha yillik joriy xarajatlar (yillik tannarx);

T_m – mablag'larni qo'yishning minimal yo'l qo'yiladigan samaradorlikni ko'zlaydigan kapital qo'yilmalarni qoplashning me'yoriy muddati.

– qo'shimcha kapital qo'yimlarning taqqoslama samaradorlik koeffitsienti hisobi asosida:

$$I = \frac{T_{an1}-T_{an2}}{K_2-K_1} > I_m \quad (23)$$

Bu yerda, I_m – kapital qo'yimlarning taqqoslama iqtisodiy samardorligini me'yoriy koeffitsienti.

Agar hisoblash quyidagicha bo'lsa:

$T_{qop} < T_m$ va $I > I_m$ – qo'shimcha kapital qo'yimlarni (kapital sig'imi yuqoriroq) talab qiluvchi variant optimal hisoblanadi;

$T_{qop} > T_m$ va $I < I_m$ kapital sig'imi kamroq optimal variant hisoblanadi.

Kapital qo'yimlarning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichini belgilash xo'jalik yoki texnik yechimlari variantlarini taqqoslashdagi korxona va uning majmualarini joylashtirish hisoblarida, bir-birini almashtiradigan mahsulot tanlovi, texnikaning yangi turlarini joriy qilish, yangi korxonalarni qurish yoki harakatdagilarni qayta qurish bo'yicha masalalarni hal qilishda keltiriladi.

Bizning milliy iqtisodiyotimizni hozirgi holati shundayki, hali uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish uchun yetarli darajada qulay sharoitlar shakllanmagan, shuning uchun I koeffitsientining miqdori 0,15 dan ancha yuqori bo'ladi. I koeffitsientini asoslash – maxsus masaladir, ammo dastlabki yaqinlashishda koeffitsient hisobi uzoq muddatli kredit bo'yicha shakllangan bankning foiz stavkasini hisobga olish zarur.

Taqqoslama iqtisodiy samaradorlikni belgilashda taqqoslash asosi uchun eng yaxshi mamlakat va chet el loyihalarining ko'rsatkichlari qabul qilinadi. Aniq sharoitlarda tadbirlarni joriy qilishdan, iqtisodiy samarani hisoblashda taqqoslash asosi sifatida aynan o'xshash masalalarni yechishniig keng tarqalgan usullari, yangi texnikani joriy qilishda esa o'rni bosadigan texnika ko'rsatkichlari qabul qilinadi.

Yillik iqtisodiy samara – bu, yangi texnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarining, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardan

biridir. Bu ko'rsatkich qiyos qilinadigan variantlar bo'yicha sarflangan xarajatlarning to'g'risidagi ma'lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$Y = (T_1 + E_n \times K_1) - (T_2 + E_n \times K_2) \times A_2 \quad (24)$$

Bu yerda: Y – yillik tejam;

T_1 – yangi texnika bo'yicha tadbirlar joriy qilingungacha bo'lgan mahsulot yoki ish birligining tannarxi (so'm hisobida);

T_2 – shuning o'zi, tadbirlar joriy kilingandan so'ng (so'm hisobida);

K_1 – tadbirlar joriy qilingungacha mahsulot birligiga sarflangan kapital mablag'lar miqdori;

K_2 – shuning o'zi, tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng;

A_2 – yangi tadbirlar amalga oshirilgandan boshlab tayyorlanadigan yillik mahsulot yoki ishlarning natija birligi.

E_n – kapital xarajatlarning me'yordagi qiyosiy samaradorligi koeffitsienti.

U yangi kapital qo'yilmalarning minimal darajadagi iqtisodiy samaradorligini hamda bir so'mlik kapital qo'yilma bir yilda mahsulot tannarxini necha tiyinga kamaytirishni bildiradi. Masalan, korxona tarmog'i uchun belgilangan samaradorlik koeffitsienti me'yori 0,15 bo'lsa, bu shu tarmoqda har bir so'm kapital qo'yilmalar mahsulot tannarxining pasayishi hisobiga eng kamidan 15 tiyinlik tejam, foyda berishi zarur. Samaradorlik koeffitsienti 0 dan 1 ga qancha tez intilsa, samaradorlik shuncha yuqori, xarajatlarning rejali qoplanish muddati esa shuncha qisqa bo'ladi.

Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligini baholashda uchta asosiy masala yechiladi:

- yangi texnik yechim, qarorlarning iqtisodiy taqqoslanishi;
- iqtisodiy samaraning absolyut hajmini aniqlash;
- yangi texnikaning iqtisodiy samarasini baholashdan foydalanib mahsulotning tannarxi, foyda va narxini rejalashtirish.

Yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashdagi eng katta murakkablik – bu samaralarning barcha turlarini to'liq hisobga olishdir. Odatda quyidagi eng ahamiyatli iqtisodiy samaralarni ajratib ko'rsatadilar:

- mahsulot tannarxini pasaytirish;
- yalpi ulushli kapital qo'yilmalarni kamaytirish (yangi texnika birligiga hisoblab);
- ishlab chiqarish hajmlarining absolyut oshishi;
- asosiylariga nisbatan yangi mehnat vositalardan foydalanib unumdorlikning (mehnat) o'sishi;
- asosiy texnikaga taqqoslaganda yangi texnika xizmat muddatining oshishi (bu holatda samara asosiy fondlarni to'liq tiklashga ajratiladigan ulushlarni o'zgartirish hisoblash amalga oshiriladi);
- eski texnikaga taqqoslaganda yangi texnikadan foydalanganda foydalanadigan materiallar xarajatining yalpi ulushini (material sig'imi) kamayishi;
- yangi texnika birligi yordamida ishlab chiqariladigan mahsulot hajmiga hisoblaganda yangi texnikada foydalanganda iste'molchining yillik ekspluatatsiya xarajatlarining o'zgarishi;
- yangi texnikani joriy qilishda tutashgan xarajatlarning o'zgarishi (masalan, atrof muhitni himoya qilishga).

Korxona rentabelligini aniqlashda ba'zida korxona olgan umumiy foyda emas, balki mahsulot tannarxini pasaytirish hisobiga olinuvchi foyda ulushidan foydalaniladi. Bunday yondashuv korxonani ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan tejamkorlik bilan ratsional tarzda foydalanish, natijada esa mahsulot ishlab chiqarishga sarflanuvchi barcha xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar sari chorlaydi. Yuqorida keltirilgan xo'jalik samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalarning iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to'lov qobiliyati ko'effitsienti (K_{pl});
- xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati ko'effitsienti (K_{ss});
- moliyaviy mustaqillik ko'effitsienti (K_{fn});
- xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik ko'effitsienti (K_{os}).

Bu ko'rsatkichlar bir qarashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, demak, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo'qday tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig'imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo'llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o'zlarining faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo'jalik sudlarida o'z manfaatlarini himoya qiladi.

To'lov qobiliyati ko'effitsienti (K_{pl}) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{pl} = \frac{A_2 - P_{dq}}{P_2 - D_{qk}} \quad (25)$$

Bu yerda:

A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralar, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlari, kreditorlik qarzlari va hokazo);

P_{dq} – muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari;

D_{qk} – uzoq muddatli qarz va kreditlar.

Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati ko'effitsienti (K_{ss}) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{ss} = \frac{P_1}{P_2 - D_{qk}} \quad (26)$$

Bu yerda:

P_1 – xususiy mablag'lar manbalari (Nizom jamg'armasi, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K_{mm}) korxona moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko'payishi), kelajakda moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma'lumot beradi hamda korxona o'z majburiyatlari oldida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{mm} = \frac{P_1}{BYa} \quad (27)$$

Bu yerda:

BYa – korxona balansi aktivi yoki passivining yakuni.

Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{aym}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. Shuningdek u, korxona egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsient quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{aym} = \frac{P_1 - A_1}{A_2} \quad (28)$$

Bu yerda:

A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Ko'rsatkichlar tizimini tayyorlagan mualliflar tomonidan korxonaning to'lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan. Masalan, to'lov qobiliyati koeffitsienti hamda xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti 2 dan kichik bo'lsa ($K_{pl} < 2$; $K_{ss} < 2$), moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 0,5 dan kichik bo'lsa ($K_{mm} < 0,5$), xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 0,1 dan kichik bo'lsa ($K_{aym} < 0,1$) korxonalar nochor deb topiladi. Korxona nochorligi, demak, xo'jalik faoliyatining samarasizligi to'g'risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi 4,6 dan kichik bo'lgan holda qabul qilinadi.

Shuningdek, korxonalarning moliyaviy holatini aniqlashda quyidagi likvidliklik ko'rsatkichlarini ham hisoblash mumkin:

- mutloq likvidlik koeffitsienti (K_{ml});
- oraliq likvidlik koeffitsienti (K_{orl});
- joriy likvidlik koeffitsienti (K_{jl}).

Mutloq likvidlik koeffitsienti korxonani qarzni yopishga imkoni borligi yoki yo'qligini aniqlaydi. Uning formulasi quyidagicha:

$$K_{ml} = \frac{P_m + Q_{mi}}{J_m} \geq (0,2; 0,7) \quad (29)$$

Bu yerda:

P_m – pul mablag'lari;

Q_{mi} – qisqa muddatli investitsiyalar;

J_m – joriy majburiyatlar.

Bunda, $K_{ml} \geq (0,2; 0,7)$ bo'lishi kerak, bu ko'rsatkichdan pasaysa korxonaga zarar, agar ortsa foyda bo'ladi.

Oraliq likvidlik koeffitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{orl} = \frac{P_m + Q_{mi} + D_r}{J_m} \geq (0,7; 0,8) \quad (30)$$

Bu yerda:

D_r – debitorlar.

Joriy likvidlik koeffitsienti:

$$K_{jl} = \frac{A_{yM}}{J_m} \geq 1,25 \quad (31)$$

Bu yerda:

A_{yM} – jami aylanma mablag'lar.

Bu ko'rsatkich O'zbekiston korxonalarida 1,25 dan past bo'lsa, 169-sonli qarorga ko'ra o'sha korxona iqtisodiy nochor hisoblanadi.

Korxonaning xo'jalik samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o'lchanishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va firmalar xo'jalik faoliyatini baholashning asosiy mezoni bo'lib foyda va fondlarga nisbatan rentabellik

hisoblanadi. Agar xalq xo'jaligi miqyosida ishlab chiqarish maqsadini belgilovchi eng aniq ko'rsatkich bo'lib milliy daromad hisoblansa, korxonalar uchun optimallik mezonini xalq xo'jaligi uchun shunday mezon bilan mos tushmaydi.

Foyda ko'rsatkichiga optimal qo'shimcha sifatida foydaning tannarxini kamaytirish hisobiga olingan ulushi farqlanadi. Ushbu qo'shimcha korxonalarni mehnat unumdorligini oshirish, xom ashyo, materiallari, yoqilg'i va energiyani tejash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltiradi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish ham uning tannarxini shartli-doimiy xarajatlar unumining nisbiy qisqarishi hisobiga kamaytiradi.

Shuni ham qayd etish lozimki, bozor munosabatlari rivojlangan, tanqislik bartaraf qilingan, yakkahokimlik yo'qotilgan sari korxonalarda foydani oshirishning faqat bitta yo'li – mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning xarajatlarini kamaytirish yo'li hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish kishilik faoliyatining hal qiluvchi sohasi bo'lgan iqtisodiyotda chuqur o'zgarishlarni talab etadi. Birinchi navbatda ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish yo'liga o'tkazish, har bir korxonani iqtisodiy o'sishning sifat omillaridan foydalanishga yo'naltirish kerak. Har tomonlama rivojlangan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari, yaxshi sozlangan xo'jalik mexanizmiga ega bo'lgan yuqori darajada tashkil etilgan va samarali iqtisodiyotga o'tish ta'minlamog'i lozimdir. Buning uchun zarur sharoitlar ko'p jihatdan bozor iqtisodiyoti tomonidan yaratiladi.

1.3. Boshqaruv samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari va ularning mazmuni

Boshqa tashkiliy muammolar kabi samaradorlikni oshirish muammosi majmuiy yondashuvni talab qiladi. Samaradorlikka ham tashqi muhitning, ham tizim

o'zgarish jarayonining turli omillari ta'sir etadi. Bu omillar bir-biriga ta'sir etishi sababli, samaradorlikning oshirishning o'zgarmas (yagona) yo'li mavjud bo'lmaydi. Samaradorlikni oshirishga qaratilgan ko'plab urinishlar korxonalar rahbarlari o'z harakatlari natijasini ko'ra bilmaganliklari sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. O'z korxonasi samaradorligiga baho berishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan xato sifatga e'tibor bermay, faqat ishlab chiqarish hajmi ko'rsatmalarini hisobga olishdir.

Tashkilotni boshqarishni amalga oshirish va takomillashtirish ushbu faoliyatning natijaviyligini belgilash, bunda o'ziga xos o'lchovlardan foydalanish zarurligini keltirib chiqaradi. Shuning munosabati bilan "boshqaruvning samaradorligi" tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshqaruvning samaradorligi – bu boshqaruv faoliyatining natijalari va bunda amalga oshirilgan xarajatlar (moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarni foydalanish)ning o'zaro munosabati va o'zaro hamkorligini aks etuvchi murakkab kategoriyadir. Boshqaruv jarayonining vazifaviy roli – uni rivojlanishining darajasi va dinamikasini, boshqaruv jarayonining sifatli va miqdorli tomonlarini aks ettirishdir.

Boshqaruv samaradorligi boshqaruv texnologiyasi, boshqaruv ishini loyihalashtirish va boshqaruv tashkiliy tizimi kabi unsurlari bilan uzviy bog'liqdir.

Boshqarish samaradorligini aniqlashda asosiy urg'u boshqariluvchi obyekt (korxona, firma va h.k.) samaradorligiga emas, balki ko'proq boshqaruv mehnati samaradorligiga, xususan, boshqaruv funksiyalarining samaradorligiga beriladi.

2-jadval

Boshqaruv resurslari va samaralari

Resurslar	Boshqaruv funksiyalari	Samara (ijobiy)
-----------	------------------------	-----------------

Materiallar Mehnat Kapital Energiya Axborot	Aloqa Qaror qabul qilish Rejalashtirish Tashkil qilish Motivlashtirish Nazorat qilish	Yaxshi sifatli tovar va xizmatlar Foyda va xarajatlar Bandlik Sotsial naflar
		Samara (salbiy)
		Yaroqsiz tovar va xizmatlar Moliyaviy zararlar Ishsizlik Sotsial noxushliklar

Shunday qilib, boshqaruv samaradorligi – bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda boshqarishning rolini oshirishdan iborat.

Boshqaruvning samaradorligi – ko'p qirrali kategoriyadir. U iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Boshqaruvning samaradorligi bir qator omillarning ta'siri ostida shakllanadi, ularni quyidagi alomatlar bo'yicha tasniflash mumkin. Mazmuni bo'yicha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, texnik, fiziologik omillar ajratiladi.

Ta'sir ko'rsatish shakli bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri va vositali omillar farqlanadi. Birinchisi boshqaruvning samaradorligiga bevosita, ikkinchisi–vositali ta'sir ko'rsatadi.

Ta'sirning davomiyligi bo'yicha ta'siri uzoq vaqt davom etmaydigan omillar va ta'siri uzoq vaqt davom etadigan omillar ajratiladi. Bunda bir xil omillar boshqaruvning samaradorligi bilan to'g'ridan-to'g'ri, boshqalari– teskari bog'lanish bilan bog'langan.

Ta'sir ko'rsatishning xarakteri bo'yicha intensiv va ekstensiv omillar ajratiladi. Birinchisi ichki resurslar, ya'ni boshqaruv xodimlari mehnatini tashkil qilishni takomillashtirish va uning sharoitlarini yaxshilash, boshqaruv xodimlarini malakasini oshirishni safarbar qilish hisobiga boshqaruvning samaradorligini oshirishini ta'minlaydi.

Ikkinchisi qo'shimcha resurslarni jalb qilish, boshqaruv xodimlarining sonini oshirishni ko'zda tutadi.

Sanab o'tilgan omillarning har biri boshqaruv tizimiga o'zicha alohida, hamda boshqalar bilan birgalikda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birgalikdagi ijobiy ta'sir ko'rsatishda ular boshqaruvning samaradorligini ancha o'sishini ta'minlaydi (sinergetik samara hisobiga), salbiyda esa uni pasaytiradi. Boshqaruvning roli ko'rsatib o'tilgan omillarga rejali ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Samaradorlikni o'sishi tashkilotning barcha darajalaridagi doimiy boshqaruv faoliyatning obyekti bo'lishi kerak.

Tashkilotning boshqaruv tizimini samarali faoliyat yuritish uning har bir elementi(tashkiliy tuzilma, xodimlar, boshqaruv usullari va jarayonlari, hujjatlar aylanishi va h.k.) uning oldiga qo'yilgan o'ziga xos talablarga javob berishini ko'zda tutadi. Bunday tashqari, u umuman boshqaruv tizimi, uning maqsadlari va vazifalariga, hamda tizimning u bevosita bog'liqlikda bo'lgan elementlariga mos keladi.

Bundan tashqari hozirgi sharoitlarda tashkilotlarni, ayniqsa tijorat tashkilotlarini boshqarishning samaradorligiga ularning tashqi muhitining holati muhim va borgan sari o'sib boruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi boshqaruv munosabatlarining iqtisodiy mohiyatini aks ettiradi. Bu, mohiyati bo'yicha, olingan iqtisodiy natijalar va boshqaruv faoliyatining o'zgaruvchan miqdorlar (ko'rsatkichlar)da aks ettirilgan qilingan xarajatlari (foydalanilgan resurslar)ning nisbatidir.

Umumiy ko'rinishda boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi (Eu)ni quyidagi formula bilan aks ettirish mumkin:

$$Eu = \frac{Ru}{Zu} \quad (32)$$

bu yerda, Ru – boshqaruv tizimini faoliyat yuritishining natijasi (natija beruvchi tashkil qiluvchi);

Zu – boshqaruvga xarajatlar yoki resurslardan foydalanishning hajmi (xarajatli yoki resursli tashkil qiluvchi).

Ushbu yondoshuvdan foydalanish hammadan avval, birinchi, boshqaruv samaradorligining natija beruvchi tashkil qiluvchisini, ya'ni bu faoliyatning natijalari, uning mahsulotini belgilashni taqozo qiladi.

Ammo uni sof holda ajratish, to'g'ridan-to'g'ri o'lchovini amalga oshirish amalda mumkin emas. Faqat doimiy ravishda bir turli va me'yorlanadigan mehnat operatsiyalari bilan band bo'lgan texnik xodimlar va ba'zi bir mutaxassislar faoliyatining mahsulotini xuddi shunday o'lchash mumkin. To'g'ri chiziqli va vazifaviy rahbarlar, ko'pgina mutaxassislar hamda umuman boshqaruv tizimi faoliyatining natijalari haqida esa sarflangan mehnatning miqdori yoki qayta ishlangan axborotlarning hajmi buyicha fikr yuritish mumkin emas. Gap shundaki, ular o'ziga xos ashyoviy natijalar shaklida bo'lmaydi.

Boshqaruv bo'yicha mehnatning shaxsan yakuniy mahsuloti deb boshqaruv qarorlarining majmuasini, ammo axborotli qarorlarni emas, amalga oshirilgan, ya'ni ijrochilar tomonidan amalga oshirilgan qarorlarni hisoblash mumkin. Bunda boshqaruv idoralarining qarorlari ilmiy asoslagan va iqtisodiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan deb faraz qilinadi. Buning ustiga, boshqaruv bo'yicha faoliyat natijalari ko'pincha boshqaruv bo'yicha mehnat sarflangan paytdan va joydan vaqtda va masofada ajratilgan. Ular faqat pirovardida boshqaruv tizimini faoliyat yuritishi natijalaridan ajratilmagan.

Shunday qilib, boshqaruv faoliyatining natijalari faqat vositali ravishda tashkilot, bo'linma faoliyati natijalarida namoyon bo'ladi.

Bunda ana shundaylar sifatida faoliyatning yakuniy ko'rsatkichlari yoki tashkilot faoliyati iqtisodiy samaradorligining ko'rsatkichlari: yalpi daromad, foyda, rentabillik darajasi, ishlab chiqarishning hajmi, tovar aylanishi va boshqalar ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda foydani tashkilot faoliyatining yakuniy natijasini aks ettiruvchi sifatida ilgari surilishi, qolgan natijalarni avtomatik ravishda ikkinchi o'ringa suradi.

Ko'rsatib o'tilgan natijalarni oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyati boshqaruv tizimining iqtisodiy samaradorligini yaxshilashga yordam beradi.

Tashkilot boshqaruvining ikkinchi, xarajatli tashkil qiluvchisi boshqaruv jarayonida foydalaniladigan boshqaruv tizimini ushlab turilishi va faoliyat yuritishini ta'minlovchi tegishli mehnat, moddiy va moliyaviy xarajatlar yoki resurslardan iborat bo'ladi. Bu xarajatlar ishlab chiqarish (tijorat) bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan va boshqaruv xarajatlari sifatida bo'ladi. Boshqaruvga yig'ma xarajatlari ishlab chiqarish (tijorat) xarajatlariining bir qismi bo'ladi.


Boshqaruvga xarajatlar obyektiv ravishda u yoki bu aniq subyekt tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv vazifalarining mazmuni, hajmi, ko'lami, boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil qilinganligi darajasi, boshqaruv jarayonlarini amalga oshirish texnologiyasi, xo'jalik rahbarlarining mahorati va boshqalar bilan belgilanadilar. Ular tashkilot faoliyatining natijalariga katta ta'sir ko'rsatadi.


Boshqaruv xarajatlari:

- 1) axborot olish va uni qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlar;
- 2) boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar;
- 3) ilmiy ishlanmalar, loyihalash, tajriba va seriyali ishlab chiqarishni o'z ichiga oluvchi bosqichlar xarajati;
- 4) mahsulotlardan foydalanish xarajatlariidan iboratdir.

Boshqacha qilib aytganda, bunga boshqaruvning barcha funksiyalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Boshqaruv xarajatlari tuzilmasida boshqaruv apparatiga xizmat ko'rsatuvchi menejerlar va boshqa xodimlar mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlar; boshqaruv texnikasiga xarajatlar; boshqaruv tizimini faoliyat yuritishga joriy xarajatlar muhim moddalar bo'ladi (2-rasm).





2-rasm. Boshqaruvga xarajatlarni tasniflash chizmasi

Bu muammolarni hal qilish tegishli uslubiy tuzatishlarni taqozo qiladi. Masalan, boshqaruv sohasidagi xarajatlarni hisobga olishni o'zgartirish, boshqaruv faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni ularga kiritish maqsadga muvofiqdir. Umuman aniq obyektlarni boshqarish va alohida vazifalarni amalga oshirishga barcha xarajatlarni ishonchli hisobga olish va hisoblab chiqarishni yo'lga qo'yish darkor.

Boshqaruvga xarajatlarning muvofiq darajasini belgilash muhim vazifani tashkil qiladi. Ma'lumki, vujudga kelgan vaziyatni boshqaruv xarajatlarni kamaytirishni mutloq tamoyilga ko'tarish, uni boshqaruv jarayonini adekvat baholashning universal vositasi sifatida ilgari surish ajratib turadi. Xuddi shu vaqtda ko'pincha bundan iqtisodiyot soxta bo'ladi, chunki uni boshqaruv tizimidagi kamchiliklar tufayli yo'qotishlar bekitib qo'yadi. Tashkilot faoliyatida yuqori yakuniy natijalarga erishish muhimroq bo'ladi. Shuning uchun gap umuman boshqaruv tuzim yoki uning alohida bo'linmasining "foydali" samarasi

birligi yoki ma'lum vazifalar, karorlarni amalga oshirishga boshqaruv xarajatlarini solishtirma qisqartirilishi haqida ketmoqda. Shunday qilib, boshqaruvga xarajatlarning muvofiq, ilmiy asoslangan darajasini qidirish zarurligiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Buning ustiga moliyaviy resurslarni cheklanganligi sharoitida boshqaruvga xarajatlarni tejash muhim ahamiyatga ega, u, xususan boshqaruvning tegishli shakllari va usullaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Boshqaruv samaradorligini ikki xil usulda hisoblash mumkin:

$$BS = \frac{\text{korxona tomonidan erishilgan natijalar (umumiy samaradorlik)}}{\text{boshqaruvga qilingan xarajatlar}} \quad (33)$$

hamda:

$$BS = \frac{\text{faqat boshqaruvning faoliyat natijasi}}{\text{boshqaruvga qilingan xarajatlar}} \quad (34)$$

Boshqaruvga bir vaqli qilingan xarajatlar quyidagilar hisoblanadi:

$$BQ = KX + NkX \quad (35)$$

KX – kapital sarf-xarajatlar;

NkX – nokapital sarf-xarajatlar.

Boshqaruv mehnati samaradorligi (bir yil hisobida) quyidagicha hisoblanadi:

$$J_{bs} = \frac{S_1}{BX_1} \div \frac{S_0}{BX_0} \quad (36)$$

Bu yerda:

J_{bs} – boshqaruv samaradorligi indeksi;

S_0 va S_1 – bazis va joriy davrlarda erishilgan samara (yalpi yoki tovar mahsuloti);

BX_0 va BX_1 – bazis va joriy davrlardagi boshqaruv xarajatlari.

Yillik boshqaruv xarajatlari quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

1. Muxandis-texnik xodimlar va xizmatchilar ish haqi;
2. Material uchun xarajatlar;
3. EHM va orgtexnikani ekspluatatsiyasi uchun sarflangan xarajatlar;
4. Qo'shimcha va bir yo'la qilinadigan xarajatlar (boshqaruv texnikasi va

uskunalarini sotib olish, tashkiliy loyihalarni moliyalashtirish va h.k.).

Ishlab chiqarishni boshqarish uchun sarflanadigan yillik umumiy sarf (BX_{bak}) quyidagicha aniqlanadi:

$$BX_{bak} = JX_i + E_n \times BIX \quad (37)$$

Bu yerda: BX_{bak} – boshqarish uchun sarflangan bir asosga keltirilgan xarajatlar;

JX_i – yillik joriy xarajatlar;

E_n – samaradorlikning normativ koeffitsienti (0,15);

BIX – bir yo'la xarajatlar.

Yillik joriy xarajatlar quyidagicha hisoblanadi:

$$JX_i = BMX + IH_b(1 + a) \quad (38)$$

Bu yerda:

IH_b – boshqaruv xodimlarining ish haqi uchun sarflar;

BMX – boshqarish uchun zarur bo'lgan materiallarga sarflangan xarajatlar;

a – qo'shimcha va turli xarajatlar koeffitsienti.

Qo'shimcha xarajatlar:

- 1) xizmat safarlari;
- 2) transportni moliyalash;
- 3) ixtiro va ratsionalizatorlik takliflarini tatbiq qilishga ajratilgan sarflar;
- 4) mehnatni himoya qilish kabi xarajatlardan tashkil topadi.

Bir yo'la xarajatlar (BYX) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$BYX = X_{bt} + X_{ii} \quad (39)$$

Bu yerda:

X_{bt} – boshqaruv texnikalarini sotib olish uchun xarajatlar;

X_{ii} – boshqaruvni takomillashtirish uchun bajarilgan ilmiy ishlanmalar, loyihalar uchun harajatlar.

Boshqaruv xodimlari:

- 1) korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning mehnat talabchanlik darajasini qisqartirishga;

- 2) korxonaning bir maromda ishlashini ta'minlashga;
- 3) ishlab chiqarishni moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga;
- 4) biznes-reja va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni optimallashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mehnat unumdorligining oshishi evaziga tejalgan boshqaruv xarajatlari (mehnati)ni (IT_{mu}) aniqlash o'ta zarurdir:

$$IT_{mu} = J_{mu} \div J_{bs} \quad (40)$$

Bu yerda:

J_{mux} – mehnat unumdorligi indeksi;

J_{bs} – boshqaruv xarajatlari indeksi.

Boshqaruv xodimining mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$MU_{bx} = \frac{YaM(TM)}{T_b} \quad (41)$$

Bu yerda:

MU_{bx} – boshqaruv xodimlarining mehnat unumdorligi;

$YaM(TM)$ – bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi yoki tovar mahsuloti, so'm;

T_b – boshqaruv xodimlarining o'rtacha yillik soni, kishi.

Agar mehnat unumdorligi oshib borsa, u holda mehnat sarfi kamayadi, ammo to'g'ridan-to'g'ri nisbatda kamaymaydi, ya'ni ishlab chiqarishning o'sishi mehnat sarfining kamayish foiziga teng emas. Bu bog'lanishni quyidagicha ifodalash mumkin:

Mehnati sarfining kamayish foizi =

$$\frac{\text{mehnati unumdorligini oshirish koeffitsienti}}{100+\text{mehnati unumdorligini oshirish koeffitsienti}} \times 100 = \frac{15}{100+15} \times 100 = 13\% \quad (42)$$

Masalan, agar mehnati unumdorligi 15 foizga oshsa, u holda mehnati sarfi 13 foizni tashkil qiladi.

$$\text{Mehnati unumdorligining oshish foizi} = \frac{\text{mehnati sarfining kamayishi}}{10-\text{mehnati sarfining kamayishi}} \times$$

$$100 = \frac{15}{100-15} \times 100 = 17\% \quad (43)$$

Masalan, agar mehnati sarfi 15 foizga kamaysa, u holda mehnati unumdorligi 17 foizga ortadi.

Foydaning qo'shimcha o'simi asosida boshqaruv xodimining iqtisodiy samaradorligi (BX_{is}) quyidagicha aniqlanadi:

$$BX_{is} = \frac{YIT_f}{BX} \quad (44)$$

Bu yerda:

YIT_f – foydaning qo'shimcha o'sishi evaziga erishilgan yillik iqtisodiy tejam;

BX – yillik boshqaruv xarajatlari.

$$YIT_f = \frac{(A_2+A_1)}{A} \times F_1 + \frac{(T_1-T_2)}{100} \times A_2 \quad (45)$$

Bu yerda:

A_1 va A_2 – boshqaruv ishini takomillashtirmagan (A_1) va takomillash-tirishdan so'ng (A_2) realizatsiya qilingan yillik mahsulot hajmi;

T_1 va T_2 – boshqaruv ishini takomillashtirilmagan (A_1) va takomillash-tirishdan so'ng (A_2) realizatsiya qilingan bir so'mlik mahsulotning tannarxi;

F_1 – boshqarish ishini takomillashtirgungacha realizatsiya qilingan mahsulotdan kelib tushgan foyda.

Boshqaruv tizimi samaradorligini tavsiflash uchun umumlashtiruvchi ko'rsatkich va bir guruh xususiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkich quyidagicha hisoblanadi:

$$BTS = \frac{BX \times 100}{AF \times K_1 + OF \times K_2} \quad (46)$$

Bu yerda:

BTS – boshqaruv tizimi samaradorligi;

BX – yillik boshqaruv xarajatlari;

AF – asosiy ishlab chiqarish fondlari (aktiv);

OF – aylanma fondlar;

K_1 va K_2 –ishlab chiqarishni kooperativlashtirish va kontsentratsiyalash (to'plash) darajalari.

$$K_1 = \frac{d_{mk}}{d_{tk}} \quad (47)$$

Bu yerda:

K_1 – kooperativlashtirish koeffitsienti;

d_{mk} – mazkur korxona mahsuloti qiymatidagi kooperativlashgan yarim fabrikatlar salmog'i;

d_{tk} – taqqoslanayotgan (taqqoslash bazasi qilib qabul qilingan) korxonaning umumiy tannarxidagi kooperativlashgan mahsulot salmog'i.

$$K_2 = \frac{AF_{mk}}{AF_{tk}} \quad (48)$$

Bu yerda:

K_2 – kontsentratsiyalash darajasi;

AF_{mk} – mazkur korxonaning asosiy fondlari qiymati;

AF_{tk} – taqqoslash bazasi qilib shartli qabul qilingan korxonaning asosiy fondlari qiymati.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqarilayotgan obyekt, ya'ni korxona ishlab chiqarish samaradorligi korxona sof mahsulotiga asoslanib hisoblangan mehnat unumdorligi darajasi bilan ifodalanadi, ya'ni:

$$IChS = \frac{SM}{T} \times 100 \quad (49)$$

Bu yerda:

$IChS$ –ishlab chiqarish samaradorligi;

SM – korxonaning sof mahsuloti;

T – korxonada band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni.

Boshqarish tizimi samaradorligi ko'rsatkichi (K_{bts}) quyidagi bog'lanishda o'z aksini topadi:

$$K_{bts} = \frac{BTS}{IChS} \quad (50)$$

Shunday qilib, K_{bts} qancha kichik bo'lsa, boshqarish tizimi samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, chunki, boshqarish uchun xarajat darajasi kam bo'lib, mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish shuncha tejimli va maqsadga muvofiq boshqarilgan bo'ladi.

Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini belgilash uchun ko'rsatkichlarni hisoblashning ikkita asosiy usullari: xarajatli va resurslilardan foydalanish mumkin.

Birinchi usul va shunga ko'ra, boshqaruvning iqtisodiy samadorligini ta'riflovchi ko'rsatkich xarajatli deb ataladi. U korxona faoliyati umumiy yoki yakuniy iqtisodiy natijalarning boshqaruvga yig'ma xarajatlarga nisbatiga suyanadi:

$$Em = \frac{P}{Ru} \quad (51)$$

Bu yerda, Em – boshqaruvning iqtisodiy samadorligi;

Ru – boshqaruv xarajatlari;

P – korxona tomonidan olingan yakuniy iqtisodiy natija. Uning sifatida faoliyatning u yoki bu umumiy ko'rsatkichi (daromadlar, foyda, ishlab chiqarishning hajmi, tovar aylanishi va h k.)lardan foydalanish mumkin.

Boshqaruvning iqtisodiy samadorligini baholashning ikkinchi usuli resursli, u korxona faoliyati umumiy yoki yakuniy natijasining resurslardan foydalanish miqdoriga, masalan, ma'muriy boshqaruv xodimlar soniga nisbatini aks ettiradi:

$$Em = \frac{P}{Ku} \quad (52)$$

Bu yerda, Em – Boshqaruvning iqtisodiy samadorligi;

P – ushbu korxona tomonidan olingan yakuniy iqtisodiy natija;

Ku – ma'muriy boshqaruv xodimlarining soni (yana faqat boshqaruv xodimlarining sonidan foydalanish mumkin).

Boshqaruv iqtisodiy samadorligining keltirilgan ko'rsatkichlari statistik bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar boshqaruv samadorligi shakllarini tahlil qilishda uning dinamik jihatini hisobga olinsa, samadorlik ko'rsatkichlarining ishonchliligi oshadi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi. Birinchidan, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning ta'riflari vaqtida o'zgarishsiz qoladi. Ikkinchidan, tadbirlarning har xil variantlari natijalar va xarajatlar dinamikasining davrlari bo'yicha turli yo'nalishlarga ega. Uchinchidan, xo'jalik qarorlari variantlarining samadorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi vaqtli siljishlar mavjud.

Shuning munosabati bilan boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlarini ikki yoki undan ortiqroq davr uchun o'zgarishlarni ro'yxatga olish va solishtirish vositasi bilan dinamikada ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunda Boshqaruvning "dinamik" samaradorligi mavjud bo'ladi.

Boshqaruv samaradorligining dinamik ko'rsatkichi (Emd)ni quyidagicha taqdim etish mumkin:

$$Emd = \frac{Fp - Fb}{Sup - Sub} \quad (53)$$

bu yerda, Fp , Fb – korxonaning tegishli ravishdagi ushbu va bazisli yillardagi yakuniy ko'rsatkichlari (masalan foydaning);

Sup , Sub – tegishli ravishdagi ushbu va bazisli yildagi boshqaruvga xarajatlar.

Emd koeffitsienti ko'rib chiqilayotgan davr ichida boshqaruv xarajatlari 1 so'mga o'zgarganida yakuniy ko'rsatkich(foйда) necha so'mga o'zgarishini ko'rsatadi. U boshqaruv samaradorligining dinamikasi, o'sish sur'atlarini aks ettiradi.

Boshqaruv iqtisodiy samaradorligining dinamikasi yana ikki va undan ortiq davr ichidagi bu ko'rsatkichlarning solishtirilishini ham ta'riflaydi, Boshqaruv samaradorligining foizlarda aks ettirilgan nisbiy o'zgarishi ko'rsatkichini beradi:

$$\Delta E = \frac{(E_2 - E_1) \times 100}{E_2} \quad (54)$$

bu yerda, E va E_2 tegishli ravishdagi bazisli va ushbu yildagi korxonani boshqarishning iqtisodiy samaradorligi.

Keltirilgan dinamik ko'rsatkichlarni yana tashkilot boshqaruvi tizimini tubdan o'zgartirishni amalga oshirishda, boshqaruv tizimlarni takomillashtirishning har xil variantlarini solishtirishda hisoblab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Boshqaruv samaradorligining ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlari boshqaruv tizimini faoliyat yuritishi darajasini baholashda umumlashtiruvchi emas, balki xususiy bo'ladi. Agar ularni boshqaruv apparati sonini o'sishi hisobiga

yomonlashishi muommalari darajasini pasayishi bilan birga borsa, unda bu tashkilot faoliyatining samaradorligini oshishi, demak uni boshqarishning samaradorligini oshishi haqida darak beradi. Boshqaruvga xarajatlarni nisbatan pasayishi esa hamma vaqt ham uning samaradorligini oshishidan darak bermaydi.

Pirovardida tashkilot boshqaruvining samaradorligi uning faoliyatining umumiy ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, natijalaridan iborat bo'ladi.

Boshqaruv samaradorligining xususiy ko'rsatkichlari ham ularning harakatlarning turli yo'nalishdaliklari uchun tashkilot boshqaruvi samaradorligining to'liq bir ma'noli bahosini olishni qiyinlashtiradi. Bularning barchasi ma'qul integralli ko'rsatkichni qidirib topish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bunday ko'rsatkich quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- korxona xo'jalik faoliyatining yakuniy maqsadiy natijalarini aks ettirishi;
- bu natijalarga erishilganlik darajasini ko'rsatishi;
- korxona tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishishda boshqaruv xarajatlarining darajasini qayd etishi.

Bu talablarga Boshqaruv iqtisodiy samaradorligining integral yoki umumlashtiruvchi ko'rsatkichi E_u ko'proq darajada javob beradi, uni quyidagicha taqdim etish mumkin:

$$E_u = \sqrt{N \times S \times E} \quad (55)$$

bu yerda, S – mehnat unumdorligi;

N – rentabillik;

E – boshqaruv tizimining iqtisodiyligi deb ataluvchi boshqaruv samaradorligining xususiy (xarajatli) ko'rsatkichi (foydaning boshqaruv tizimini ushlab turishga xarajatlarga nisbati).

Boshqaruv iqtisodiy samaradorligining ushbu integral ko'rsatkichi xo'jalik faoliyati samaradorligini boshqaruv tizimining iqtisodiyligi darajasi bilan tenglashtiradi. Boshqaruv tizimi iqtisodiyligi darajasini oshishi savdo samaradorligini o'sishining muhim omilidir. Ammo boshqaruv tizimining iqtisodiyligini oshishi o'zicha uning samaradorligi darajasi haqida batafsil javob

bermaydi va samaradorlik darajasini pasayishi bilan birga borishi va aksincha bo'lishi mumkin. Shuning uchun, boshqaruv samaradorligining taklif qilinayotgan integral ko'rsatkichi korxona faoliyatining samaradorligi va boshqaruv tizimi iqtisodiyliги ko'rsatkichlarining samarasi bo'ladi.

Boshqaruv samaradorligini baholash uchun asosiga tashkilotfaoliyatining erishilgan natijalar va uni boshqaruv tizimini rejalashtirilgan, ya'ni qo'yilgan maqsadlar bilan solishtirish qo'yilgan yondoshuv g'oyatda istiqbolli bo'ladi. Bu holda boshqaruv samaradorligini boshqaruv tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlar (reja, dastur) ga erishganlik darajasi yoki unga yaqinlashganlik darajasi bilan miqdoriy aks ettirish zarur. Bunda rejalar va dasturlar jiddiy va ilmiy asoslangan bo'lishi ko'zda tutiladi.

Bunday yondashuvda boshqaruv jarayoni natijaviyligini tartibga solish maqsadiy ko'rsatkichi(D)ning haqiqiy va rejalashtirilgan miqdorlarini solishtirish orqali ta'riflash mumkin.

$$D = E_p - E_f \quad (56)$$

bu yerda, E_p – boshqaruv mavsadining muvofiq algaritmga mos keluvchi rejalashtirilgan ko'rsatkichi;

E_f – boshqaruv maqsadi ko'rsatkichining haqiqiy tizim tomonidan ta'minlanadigan haqiqiy miqdori.

Bunda boshqaruv tizimini faoliyat yuritishining samaradorligi $E_p - E_f$ ning farqi qanchalik kam bo'lsa, shunchalik yuqori bo'lishi qabul qilinadi. Shuning uchun boshqaruv samaradorligi E_r ni F dan D gacha bo'lgan ba'zi bir vazifasi bilan ta'riflash mumkin:

$$E_r = F(D) = F(E_p - E_f) \quad (57)$$

Bunda boshqaruvning maqsadi funksional minimumga ega bo'lishidan iboratdir.

Ushbu yondashuvni amalga oshirilishi maqsad bilan bir vaqtda boshqaruvga xarajatlar (yoki foydalanilgan resurslar hajmi)ni quyidagicha belgilashni ko'zda tutadi: chegaraviy (eng ko'p yo'l qo'yiladigan) yoki ma'lum (qayd etilgan).

Shuni ta'kidlash kerakki, boshqaruv samaradorligini maqsadga erishish darajasi bo'yicha baholash usuli o'zida subyektiv (maqsadni qo'yish) va obyektiv (haqiqiy natijalar)ni solishtirishga egadir.

Boshqaruv samaradorligining keltirilgan ko'rsatkichlarini iqtisodiy samaradorlikning ko'rsatkichlari deb hisoblash mumkin.

Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlaridan foydalanish boshqaruv tizimiga tashxis qo'yish, uni faoliyat yuritishida vujudga keladigan chetga chiqishlarning oldini olish, samarasiz boshqaruvning sabablarini ochib berish, boshqaruv idoralari faoliyatida ilmiy asoslangan maqsadni ko'zlashini amalga oshirish, ularning bunday keyingi ishlariga tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Bundan tashqari, u boshqaruv xodimlarining motivatsiya tizimini yaratish, ularning mehnatiga haq to'lashni boshqaruv bo'yicha faoliyat samaradorligiga berilgan bog'liqlikka qo'yishga imkon beradi. Shuning munosabati bilan ta'qidlash kerakki, halokatlar nazariyasiga ko'ra, ma'sul qarorlar qabul qiluvchi va ularni amalga oshiruvchi shaxslar va odamlarni bu qarorlarni amalga oshirishligiga shaxsan, moddiy bog'lanishlari g'oyatda muhimdir.

Ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligi deganda menejmentda boshqaruv faoliyatini jarayon sifatida natijaliligi tushuniladi. Agarda boshqaruv faoliyatining natijalari jamoa faoliyatining natijalari bilan mos tushishini hisobga olsak, bu holda boshqaruv jarayonining samaradorligi – bu juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy toifa ekanligi ma'lum bo'ladi. U o'z ichiga boshqaruvning barcha jihatlarini oladi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, marketing, texnologik va boshqa munosabatlar samarasiga bog'liq bo'ldi. Boshqaruvning har qanday bo'g'ini uchun xos bo'lgan hamda samaradorlikni ifoda etuvchi tushunchalar:

- xodimlarning mehnati samaradorligi;
- boshqaruv apparati, uning turli bo'g'inlari va bosqichlari faoliyatining samaradorligi;
- aniq qaror ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonidagi boshqaruv jarayonining samaradorligi;

- boshqaruv ierarxiyasidan kelib chiqib hamda ishchi-xodimlarni boshqaruvda ishtiroki darajasiga bog'liq boshqaruv tizimining samaradorligi;
- boshqaruv mexanizmining, ya'ni boshqaruv usullari, uslubi va shakllarining samaradorligidan iborat bo'ladi.

Samaradorlikni oshirishda boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Tashkil etish jarayoni rahbariyat mehnat resurslari, materiallar, texnologiya, axborot va kishilarni qo'yilgan maqsadga erishish uchun birlashtiruvchi vositadir. Boshqaruvni samarali tashkil etish (ya'ni, tashkiliy jarayonlar sozlanganligi) natijasida resurslardan maqbul foydalanish, ijrochilar majburiyatini taqsimlashda tushunmovchilik natijasida mehnat unumdorligi pasayishini kamaytirish, bo'linmalar o'zaro ta'siri buzilishiga chek qo'yilishini ta'minlaydi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan tashkiliy jarayonlar samaradorlikning asosiy mezonini hisoblangan mehnat unumdorligi darajasining ortishiga imkon beradi.

Boshqaruvni takomillashtirish orqali erishilgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash loyihalashtirish va ishlab chiqarishga joriy etishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Boshqaruv samaradorligini hisoblash ko'proq solishtirma xarakterga ega. Ammo menejmentning miqdoriy jihatidan ham ko'ra, ko'proq ijtimoiy samaradorligi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy samara ko'proq moddiy va mehnat xarajatlarini tejashni maqsad qilsa, ijtimoiy samaradorlik ishchi xodimlarning mehnat faolligini oshirish, ishbilarmonlik jihatlarini oshirish, ish joyida charchash va ishdan ketish hollarini qisqartirish, mehnat sharoitini yaxshilash bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa, boshqaruvning ijtimoiy yo'naltirilganligi kuchayib boradi, ishchi xizmatchilarni ijtimoiy, maishiy, madaniy va ma'rifiy sharoitlarini yaxshilash muhim bo'lib boradi.

Shuning bilan birga yana boshqaruv faoliyatining ijtimoiy natijasini aks ettiruvchi boshqaruvning ijtimoiy samaradorligini ham ko'rib chiqish mumkin. U mehnat jamoasi va har bir xodimning salohiyatli imkoniyatlari, uning ijodiy qobiliyatlaridan foydalanish, jamoani rivojlanishi ijtimoiy vazifalarini hal qilishning muvaffaqiyatliligi darajasini ta'riflaydi.

Menejment samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish olingan natijalar va qilingan xarajatlarning o'zaro munosabatini ko'zda tutadi. Bunda korxonalar faoliyatining ijtimoiy natijalari sifatida mehnat va turmush sharoitlari, xodimlarining malakasi, ularning faoliyatini tashkil qilish va motivatsiyadan iborat bo'ladi. Ayrim hollarda ular boshqaruvning texnik vositalarini xarid qilish, xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, korxona xodimlari uchun turar-joylar qurish, xodimlarni sanatoriya-kurortlarda da'volanishlari va dam olishlari uchun yo'llanmalarni xarid qilish va boshqalarga sarflagan xarajatlar sifatida bo'ladilar. Ammo boshqaruv faoliyatining ko'pgina ijtimoiy natijalari moddiy xarajatlarga bog'liq bo'lmaydi. Ularni xarajatlar (resurslar)siz faqat natija beruvchi tashkil qiluvchilar bilan ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Shuning ta'kidlash kerakki, boshqaruv samaradorligi yana boshqaruv tizimining faoliyat yuritishga intilish kerak bo'lgan qandaydir sharti, alomati, natijasi sifatida bo'ladi.

III BOB. “FARG’ONA YOG’ – MOY” AJNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI BOSHQARISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI

3.1. “Farg’ona yog’–moy” AJning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy qismida korxonaning iqtisodiy samaradorlik, uni oshirishga ta’sir etuvchi omillar mohiyati va ularni amalga oshirish imkoniyatlari, boshqaruv samaradorligining nazariy jihatlarini o’rganilgan edi.

Ishning keyingi bobida esa, ”Farg’ona yog’-moy” AJ ning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tahlil qilindi va tegishli xulosalar chiqarildi.

Olingan ma’lumotlar natijalarini o’rganib, ishning bu bobida korxonani samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan korxonani va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalda qo’llash imkoniyatlarini yoritishga harakat qilinadi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xo’jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning ijobiy natijalarining mavjud bo’lmasligini, boshqacha qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo’qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo’lib kelgan va hozirda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo’llar bilan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalashtirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- progressiv, mehnat hamda resurslarni yo’naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;

- xom ashyo va materiallarni zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hissoblash texnikasidan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitda chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari, yangi texnologiyalar va so'nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muxandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun ijtimoiy va iqtisodiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida mavjud ishlab chiqarish salohiyati – asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlarida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zarurdir. Birinchidan, bozor vaakumi harakatsizlikni, xo'jasizlikni va yo'qotishlarni kechirmaydi, ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxona istiqbolga ega bo'lmaydi hamda inqirozga uchrashiga asos yaratadi. Shu sababli barcha turdagi bo'g'inlarda tejamkorlikka rioya qilish har bir korxona faoliyatining muvaffaqiyat qozanishining garovi hisoblanadi.

Korxonalar samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o'rin tutadi. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllarini, ya'ni korxona faoliyatining butun xo'jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxona rahbarining ish uslubi va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur.

Korxona faoliyatini samarali bo'lishida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

“Farg’ona yog’-moy” AJda bu omillarni doimo qo'llab, rivojlantirib borish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, zamonaviy korxonalar orasidan joy olishga, boshqaruvda samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi. Korxonani samarali faoliyat yuritishida bu omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq, bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Chunki bu sarflangan resurslar va vaqtlar albatta, korxonaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Samaradorlikni oshirib borish har bir korxonaning oldida turgan muhim vazifasidir. Amaliyotdan ma'lumki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o'z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxona o'zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda yanada yuqoriroq marralarga erishishini ta'minlaydi.

3.2. “Farg’ona yog’-moy” AJda samaradorlikni oshirishni boshqarishning asosiy yo'nalishlari

Erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Barcha korxona ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Samarali tashkil etilgan iqtisodiyotga o'tishda har tomonlama rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan korxonalar kelajakdagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga yetarli e'tibor bera boshlaydilar. Yangi texnikalarga, ishlab chiqarishni yangilashga, yangi mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarishga zaruriy vositalarni qo'llaydilar. Undan tashqari, tashkiliy shart-sharoitlar va omillar, konstruktorlar, injenerlar, ishchilar ijodiy mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy motivlar yaratish zarur. Texnik va texnologik yangilanishlar, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun yangi texnika va texnologiyalarni – joriy qilishni ta'minlash, ishlab chiqarishga mehnatni ilmiy tashkil etishning progressiv shakllarini joriy qilish. uni me'yorlashni takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, tartib-intizomga erishish – mehnat jamoasining barqarorligani ta'minlash lozim².


Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biri sifatida “Farg'ona yog'-moy” AJda modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan yangilash masalalarini taklif qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida respublika byudjetidan katta miqdorda mablag'lar ajratilmoqda.

² Barinov V.A. Organizatsionnoe proektirovanie. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2010. – 104 bet.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transprt-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish vazifalari belgilab qo'yilgan.

Shu sababli, keying yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.



3-rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari

Bugungi kunda mamlakatimizda sanoat sohasi jadal rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotida yetakchi bo'g'inga aylandi. Sanoat korxonalari tomonidan ichki iste'mol bozoriga sifatli, mahalliy xom-ashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar

arzon narxlarda yetkazib berilib, aholi hamda xalq xo'jaligining turli sohalarida sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlar qondirilmoqda.

Hozirgi paytda respublika hukumati tomonidan ishlab chiqarish sohasi, sanoat korxonalarini isloh qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar mahalliy xom-ashyolarga asoslangan milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga va ularni jahon bozorida yetakchi bo'lishini ta'minlash, ularning sifatini oshira borish orqali eksport hajmini oshirishda har bir korxona xom-ashyo yetkazib beruvchilarni ham, iste'molchilarni ham o'zi izlab topishi, tanlashi, ularning talab va takliflarini obdon o'rganishi lozim. Shunday ekan, korxonalar hozirgi kunda ishlab chiqarish bilan iste'molchilar o'rtasidagi mavhumliklarni bartaraf etish, bozor talab tuzilmasini o'rganish, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarining ustuvor jihatlarini tadqiq etish asosida ishlab chiqaruvchi subyektlar o'z taklifi tuzilmasini takomillashtirib borish zarur, Buning uchun quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- ishlab chiqarish va qayta ishlashni ilg'or texnologiyalar, “nou-xau”, patentlar, sanoat namunalari, lizing asosida tiklash, texnikaviy qayta jihozlash va rivojlantirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni ko'paytirish va ularga qo'shimcha imtiyozlar berish;

- eksport qilinadigan va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va boshqalar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni jalb qilish muhim masalardan biridir. Shu sababli ham, hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlariga e'tibor qaratish hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash masalalari mamlakatimizda muhim o'ringa tutganligi sababli chet el investorlariga yanada qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, soliq imtiyozlaridan kengroq foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Shuningdek, "Farg'ona yog'-moy" AJ O'zbekiston Respublikasi hududidasamaradorlik ko'rsatkichi yuqori korxonalar safidan joy olish uchun korxona kelgusi faoliyatlarida sifatni boshqarish bo'limini, sifat to'garaklarini tashkil etishi ham maqsadga muvofiqdir. Shu orqali mahsulotlar sifatini yanada yaxshilashga, zamon talablari darajasiga yetkazishga erishishi mumkin bo'ladi. Bunda innovatsion loyihalar amalga oshirish, g'oyalar yaratilishida innovatsion texnologiyalarni keng jalb qilish muhim ahamiyatga egadir.

Korxonada shu bilan birga eksport salohiyatini shakllantirilishi korxona faoliyatini yanada barqarorlashtiradi, mustahkamlaydi. Chunki korxonada eksport salohiyati past darajada. Bu borada, avvalo, korxona o'z majburiyatlarini bajarishga intilishi muhimdir. Lekin korxonaning kelgusi faoliyatida ham sifat va ishonchni yo'qotmaslik korxona oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Kelgusi faoliyatlarida korxona ishlab chiqarish quvvatlarini oshirgan holda eksport salohiyatini ham shakllantirishi lozim.

"Farg'ona yog'-moy" AJda samaradorlikni oshirishning yana bir yo'nalishi bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanishga erishishidir. Korxona yiliga texnik paxta chigitini 126 ming tonna ishlab chiqarish quvvatiga ega, lekin korxona bu quvvatning faqat 36%idangina foydalanyapti. Bunga asosiy sabab korxonada paxta chigiti xom-ashyosining tanqisligidir. Shunday ekan, korxonada boshqa xom-ashyolardan ham foydalangan holda mahsulot turlarini ko'paytirishi lozim. Korxonada kungaboqar donidan ham yog' mahsulotlari chiqariladi. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali mahsulotni hajmini oshirishga erishishi mumkin. Shuningdek, mazali va biologik faol hamda shifobaxsh xususiyatlarga ega tarvuz, qovun, uzum, qovoq, pomidor, kunjut, bodom, rapsa, olxo'ri, o'rik, shaftoli danagi kabi noan'anaviy turdagi xom-ashyodan yog' olish


texnologiyasi ham yog'-moy sanoati korxonalari uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish tarmoqda davom etayotgan ishlab chiqarishni ilg'or xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, unga zamonaviy, yuqori samarali innovatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturini amalga oshirish bilan bog'liq.

Chet el korxonalarida bu xom-ashyolardan yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Ular juda foydali hisoblanadi va ularga talab yuqoridir. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali mahsulotlari turini ko'paytirishga va ularni xorij mamalakatlariga eksport qilib eksport salohiyatini oshirishga erishadi.

Bundan tashqari korxona o'z mahsulotlari tannarxini kamaytirishga erishishi lozim. Bunda asosan import qilinadigan va mahalliy xomashyolarning narxini tushirish, yangi xomashyo manbaalarini izlab topishi zarur. Korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda korxonalarimiz ishlab chiqarish faoliyatida qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning samaradorligini oshirishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda "Farg'ona yog'-moy" AJ mahsulot tannarxini tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini qayd etish lozim.

Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari to'g'risida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, korxonada tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir (4-rasm)³.



4-rasm. Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari

Mahsulot tannarxini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan tannarxni optimallashtirishning quyidagi usullarini qo'llashni tavsiya etamiz:

- import resurslari narxlarini qayta ko'rib chiqish va pasaytirish (-24%);
- materiallar sarfi me'yorlarini qayta ko'rib chiqish (-0.06%);
- lokalizatsiya darajasini kuchaytirish orqali tannarxni kamaytirish (-1%);
- mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirish (-0.05%);
- foydalanilmayotgan quvvatlarni konservatsiya qilish (-2%);
- ishchilar va xodimlar sonini optimallashtirish (-0.3).

“Farg’ona yog’-moy” AJda asosan tannarxni kamaytirishda xom-ashyo va materiallarni me'yoridan imkon darajasida qisqartirishi, xom-ashyoni sotib olishda optimal narxlarni topishi, energiya resurlarini qisqartirilishi, ishlab chiqarishdagi yordamchi sehlar xarajatlarini kamaytirishi lozim. Chunki, korxonada xom-ashyo va materiallarni sotib olishdagi xarajatlari, energiya xarajatlari, ishlab chiqarishda sarflanadigan xarajatlari tannarxni ichida turuvchi asosiy xarajatlar hisoblanadi.

Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqishni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Korxona o'z mahsulotini ishlab chiqarish uchun sotib olayotgan va sarf qilayotgan resurslardan qanchalik oqilona foydalansa, ya'ni chegaralangan resurslarini faqatgina zaruriysini sarf qilsa, buning natijasida maksimal foydaga erishsa, butun iqtisodiyotida oldinga qarab katta siljish yuz beradi.

Korxonalarni samarali boshqarishda korxona faoliyatining daromadlilikini oshirish uchun xodimlarga ish haqini o'z vaqtida va yetarli tarqatish kerak. Chunki yurtimizda "Avval iqtisod, keyin siyosat" degan gaplar bor. Xodimning oilaviy sharoiti qanchalik yaxshi bo'lsa. U korxona uchun kerak bo'lsa ikki marta ko'proq foyda keltirishi mumkin. Mehnatning natijasi qancha tez rag'batlantirilib borilsa, u shuncha unumli, samarali bo'ladi.

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatni iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga oladi. Bular orasida iqtisodiy samaradorlikni to'xtovsiz oshirib borish asosiy o'rinda turadi. Korxonalarning samarali faoliyat yuritishi va samaradorligini oshirib borishi uning muvaffaqiyatini belgilaydi va shu bilan birga, iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, samaradorlik tufayli korxona quyidagi imkoniyatlarga erishadi:

– birinchidan, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi;

– ikkinchidan, o'z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi;

– uchinchidan, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi;

– to'rtinchidan, ishlab chiqarish hajmini oshib borishini ta'minlaydi.

Demak, iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini qidirish, xarajat va natijalarni to'g'ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat turidan qat'iy nazar, har bir korxona uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Korxona moliyaviy natijalarini oshirish moddiy va mehnat omillaridan samarali foydalanish darajasiga bog'liq. Xom-ashyodan, asosiy vositalardan va ishchi kuchidan oqilona foydalanish asosida moliyaviy natijalarni intensiv ravishda oshirishga erishish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biridir. Samaradorlikning oshishi xarajatlar birligiga to'g'ri keladigan iqtisodiy natijalarning ko'payishi bilan ifodalanadi. Samaradorlik xo'jalik yuritish mehanizmining takomillashganlik darajasidan, biznesni to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligidan darak beradi.

“Farg'ona yog'-moy” AJ korxonasi tahlil qilinganda quyidagi muammolar aniqlandi:

– korxonada mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi texnika-texnologiyalarning eskirganligi va bu mahsulot sifatiga ta'sir qilayotganligi;

– korxonada sifat menejmenti to'garaklarining mavjud emasligi;

– marketing, reklama faoliyatlarining sustligi va korxonaning rivojlanish strategiyalarida ularning deyarli ishtirok etmasligi;

– mehnat resurlari uchun qulay ish muhitining yaratilmaganligi, kadrlarning qo'nimsizlik darajasining ortayotganligi;

– korxona binolarning ta'mirbop bo'lib qolganligi;

- korxona moliyaviy holatining barqaror emasligi, shuningdek, to'lov qobiliyatining nisbatan past ko'rsatkichda ekanligi;

- korxonada ishlab chiqarish quvvatidan to'la foydalanilmayotganligi va buning natijasida, mashulot ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz amalga oshmayotganligi;

- xom-ashyo bazasining yetishmasligi;

- innovatsion loyihalarning yaratishga jiddiy e'tibor berilmasligi va boshqalar.

Bu muammolarni hal qilish korxona uchun juda muhim hisoblanadi. Bu muammolarni bartaraf etishda korxona quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi lozim:

- korxonada modernizatsiya ishlari amalga oshirilishi, eski texnika-texnologiyalarini yangi, zamonaviy, sifatli va mustahkam texnologiyalarga almashtirilishi zarur;

- korxonada innovatsion loyihalar yaratilishi, mahsulotlarning yangi turlari kashf qilinishi, yog', sovun mahsulotlarining boshqacha xususiyatga ega bo'lgan navlarini ishlab chiqarilishi kerak;

- mahsulotlarning sifatiga e'tiborni kuchaytirishi, korxonada sifat menejmentiga alohida e'tibor qaratib, sifat to'garaklarini tashkil etishi, mahsulotlarida ozuqaviy moddalarni ko'paytirishi kerak;

- xodimlarning samarali ishlashlari uchun yaxshi ish muhiti yaratilishi, qulay ish joyiga ega bo'lishlari hamda motivatsiyani kuchaytirish zarur;

- xodimlarning malakasini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borilishi, boshqa korxonalar tajribalarini o'rganib kelishi uchun malaka oshirishga yuborilishi lozim;

- mahsulotlarni ishlab chiqarishda tannarxni yanada kamaytirish yo'llarini izlab topish darkor;

- korxonaga investitsiyalarni jalb qilish, chet el korxonalari tajribalaridan foydalanishni rivojlantirish zarur;

- xom-ashyo va mahsulotlarni saqlanib turilishi uchun hamma sharoit mavjud bo'lgan omborlar qurilishi kerak;

– moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini ko'tarishi, buning uchun, xarajatlarni kamaytirib, korxonaning o'z mablag'lari va sof foydasini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishi zarur;

– ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar bo'lmasligiga harakat qilish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanish, xom-ashyo bazasidagi yetishmovchiliklarni oldini olish lozim;

– aylanma fondlarning aylanish salmog'ini oshirishga erishishi lozim;

– mahsulotlarini chet el davlatlariga eksport qilish orqali eksport salohiyatini oshirishi lozim.

Korxonalar faoliyati manfaatlari uchun eng yangi imkoniyatlar va zaruriyatlardan biri korxonani texnik-texnologik jarayonlarni yanada rivojlantirish yo'li bilan samaradorlikni oshirish orqali respublika real iqtisodiyoti tarmoqlarida vujudga kelib qolgan taqchillikni oldini olish va istiqbolli taraqqiyotga imkon yaratishdir.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishish bu har bir korxonaning boshqaruvida zarurdir. Samaradorlik korxonaning mavqeyini, moliyaviy holatini, raqobatbardoshligini, o'sish yoki kamayish ko'rsatkichlarini aniqlab beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda va korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishni boshqarish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida iqtisodiy samaradorlikning mazmuni va mohiyati nazariy jihatdan ko'rib chiqildi, bu esa korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishni boshqarishda, maqsad va asosiy vazifalarni bajarishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yildagi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: “O'zbekiston”, 2009.
5. Abdukarimov B.X. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. – T.: “Fan”, 2005.
6. Abdukarimov B.X. va boshqalar. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1997.
7. Abdullayev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari. – T.: “Mehnat”, 1997.
8. Abdullayev A.A., Aybeshov A.H. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: “Ilm Ziya”, 2003.
9. Akramov A.E. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: “Moliya”, 2003.
10. Barinov V.A. Organizatsionnoe proektirovanie. Uchebnik. – M.: “INFRA-M”, 2010.
11. Egamberdiyev E., Qudratov G'. Koroxna iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T., 2004.
12. Genkin B.M. Organizatsiya, normirovanie i oplata truda na promishlennix predpriyatiyax. O'quv qo'llanma. – M.: “Norma”, 2005.
13. Isroilov B., Abdibayeva D. Xo'jalik faoliyati tahlili. O'quv kompleks. – T., 2015.
14. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti (ma'ruza matni). – T., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2012.

15. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi” “Adabiyot jamg'armasi” nashriyoti., 2004.
16. Stupakov V.S.. Tokarenko G.S. Risk menejment. O'quv qo'llanma. – M.: “Finansi i statistika”, 2005.
17. Toshniyozov M..SHarifboev I..Obidov O. Korxonalar boshqaruv faoliyati asoslari. – T.: “O'zbekiston”,1995.
18. Ulashev I.O.. Atamurodov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. T.: “Tafakkur bo'stoni”, 2013.
19. Vahobov A.V..Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.: “Sharq”, 2005.
20. Voljin I.O.. Ergashbaev V.V. Finansoviy analiz. – T.: “Mir ekonomiki i prava”, 1998.
21. Yuldasheva S., To'rayeva Z. Sanoat korxonalarining samaradorligi va uni oshirish imkoniyatlari // Iqtisodiyot va ta'lim, 2013. 2-son.
22. Yo'ldoshev N.Q.. Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik. – T., 2013.
23. Zaytsev N.L. Ekonomika promishlennogo predpriyatiya. – M.: “INFRA-M”, 2008.
24. Sharifxo'jayev M.. Abdullayev Y. Menejment. Darslik. – T.: “O'qituvchi”. 2001.
25. www.lex.uz – O'zbekistot Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
26. www.economics.uzreport.uz – Axborot agentligi sayti.
27. www.kun.uz – Kunning asosiy yangiliklari sayti.
28. www.russia.fyom.uz – “Farg'ona yog'-moy” AJning rasmiy sayti.
29. www.wikipedia.ru/uz – Ochiq ensiklopediya.
30. www.aim.uz – Axborot izlash markazi.
31. www.el.tfi.uz – Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi sayti.
32. www.ziyonet.uz – Axborot ta'lim portali.